

O'QUVCHI NING SHAXSLARARO MUNOSABATLARIDA TARBIYAVIY TA'SIRLAR TIZIMINING EMPIRIK TAHLILI

Eshtemirov Eldor Uktam ugli

Xalqaro Nordik universiteti magistri, Toshkent

Аннотация. Ушбу мақолада о‘quvchini o‘rganishning murakkabligi va uning ko‘p qirraliligi, uning barcha muhim xususiyatlarining rivojlanishini baholashda maksimal darajada e’tiborga olish kerakligi, o‘quvchiga uning muammolarini bartaraf etishda korreksion faoliyat yo‘nalishini belgilaydigan vosita sifatida o‘rganish va tashxis qo‘yish, o‘quvchining rivojlanishini baholash va o‘rganishda uning hayotida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan va uni tarbiyalaydigan o’qituvchilarining ishtiroki (ota-onalar, o’qituvchilar, pedagoglar) haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, shaxs, psixofiziologiya, jismoniy rivojlanish, dinamika, sezgi, harakat sohasi, rivojlanish xususiyatlari, umumiy motorika, muloqot ehtiyoji.

Annotation. This article discusses the complexity and multifaceted nature of a student's learning, the need to take into account all his important features to the maximum when assessing the development of the student, the importance of learning and diagnosis as a means of determining the direction of corrective activity for the student in eliminating his problems, the participation of teachers who have a special importance in his life and educate him in assessing his development and learning (parents, teachers, pedagogues).

Keywords: technology, personality, psychophysiology, physical development, dynamics, sensory, motor area, developmental characteristics, general motor skills, communication needs.

Аннотация. В статье рассматривается сложность и многогранность обучения школьника, необходимость максимально учитывать все его важные особенности при оценке развития школьника, значение обучения и диагностики как средства определения направления коррекционной деятельности школьника по устранению его проблем, участие в оценке его развития и обучения педагогов, имеющих особое значение в его жизни и воспитывающих его (родителей, учителей, воспитателей).

Ключевые слова: технология, личность, психофизиология, физическое развитие, динамика, сенсорика, двигательная сфера, особенности развития, общая моторика, коммуникативные потребности.

Kirish. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchida shunday darajani ta’minlashga yo‘naltirilganki, unda o‘quvchi o‘zini faoliyat subyekti sifatida anglaydi, psixologik himoyalanganlikni his etadi.

Har qanday diagnostikani amalga oshirishda mакtabda faoliyat yuritadigan pegoglar va psixologlar quyidagi prinsiplarga rioya qilishlari lozim:

- o‘quvchini o‘rganishning murakkabligi va uning ko‘p qirraliligi, uning barcha muhim xususiyatlarining rivojlanishini baholashda maksimal darajada e’tiborga olish kerakligi;
- o‘quvchilarni mazkur davrdagi yetakchi faoliyati va shaxslaro munosabatlarni tashkil etishda, ushbu faoliyat va munosabatlar orqali o‘rganish;
- o‘quvchiga uning muammolarini bartaraf etishda korreksion faoliyat yo‘nalishini belgilaydigan vosita sifatida o‘rganish va tashxis qo‘yish;
- o‘quvchining rivojlanishini baholash va o‘rganishda uning hayotida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan va uni tarbiyalaydigan o‘qituvchilarning ishtiroki (ota-onalar, o‘qituvchilar, pedagoglar).

Diagnostika natijalarining ishonchliligi, validligini ta’minlash va xatoliklarning oldini olish uchun pedagog-psixologlar quyidagilarga alohida e’tibor qaratishlari lozim:

- o‘quvchining ayni damdagи holati va uning jismoniy rivojlanishi;
- yosh davrining psixofiziologik xususiyatlari;
- jismoniy rivojlanish dinamikasi;
- eshitish va ko’rish sezgisining namoyon bo’lishi;
- harakat sohasi rivojlanishining xususiyatlari;
- umumiy motorikaning buzilishi (umumiy zo’riqish yoki holsizlik, harakatlarning noto’g‘riligi va boshqa nuqsonlarning mavjudligi);
- harakatlarni muvofiqlashtirish (yurish xususiyatlari, imo-ishoralar, agar kerak bo’lsa, muvozanatni saqlashdagi qiyinchiliklar, harakatlar tezligini tartibga solish);

- mehnatga layoqatlilik xususiyatlari (charchoq, befarqlik, qat'iyatlilik, ish tezligi; mashg'ulot oxirida xatolar sonining ko'payishi yoki bir xil faoliyat turi bilan muntazam shug'ullanish).

Nazariy tahlil. Hozirgi kunda mamlakatimizda joriy amalda bo'lgan "Ta'lism to'g'risida"gi qonunga¹ binoan davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlari bilan bir qatorda nodavlat maktabgacha ta'lism tashkilotlari ham faoliyat ko'rsatib, bu borada ma'lum darajada raqobat muhiti yaratilayotganligi haqiqat.

Albatta, "Mehnat faoliyati o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga, qiziqishlarining kengayishiga, oddiy hamkorlik shakllarining namoyon bo'lishiga, mehnatsevarlik, mustaqillik, topshirilgan vazifa uchun mas'uliyat, burch hissi va axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi".²

Mashg'ulotlarning pedagogik jarayondagi o'rnini inkor qilmagan holda, ayrim mutaxassislar ularni o'quvchi lar bilan ishning bosh vositasi, deb hisoblamaydilar. Shu munosabat bilan mashg'ulotlar soni, ularning davomiyligini o'qituvchining o'zi ularning qaysi birini qachon, qaysi vositalar bilan tashkil qilishni belgilaydilar. Mashg'ulotlarni tashkil etishdan maqsad, o'quvchilarining shaxsiy tajribalarini umumlashtirish, chuqurlashtirish, bir tizimga solishdan iborat bo'ldi.

Tajriba mashg'ulotlari qiziqarli, muammoli yo'naltirilgan bo'lishi, o'quvchi ning muntazam ravishda o'sishi, mustaqilligi va ijodkorligini ta'minlashi, ijtimoiy-hissiy rivojlantirishi lozimligini nazarda tutgan holda o'quvchi larni kichik guruhlardan formatida integrallashtirib o'tkazildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tengdoshlari bilan muloqot ehtiyoji o'sib boradi. Shuni inobatga olgan holda o'qituvchi o'quvchilarini kichik guruhlarda o'ynashga jalb etdi, birga bajarishlari uchun topshiriqlar berdi va har kuni guruhda o'quvchi lar o'zaro muloqotining turli ko'rinishlarini tashkil etdi va shu orqali o'quvchilar o'zlari mustaqil, ixtiyoriy faoliyat tanlashlariga sharoit yaratdi.

¹ Айзенк, Г.Ю. (2005). Понятие и определение интеллекта// Вопросы психологии. – № 1. – С. – 111-129.

² Gruber, H. Devis, S. (2008). Inching our way up Mount Olumpus: the evolving- sistem approach to creative thinking// R. Sternberg,n T.Tardif (eds.). The nature of creativity. Cambridge: Cambr. Press., P.-243-270.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy-hissiy rivojlantirishda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etdi:

O‘quvchilarning maktabda psixologik ko‘nikishlari uchun sharoit yaratish, guruhdagi o‘quvchi lar bilan kommunikatsiya munosabatlarini maqbul yo‘lga qo‘yish, har bir o‘quvchining intellektual va ijtimoiy-hissiy yo‘nalishdagi faoliyatini barqaror ta’minlashiga erishildi. O‘quvchilar jismoniy taraqqiyotini ta’minlash, asosiy harakat turlari, gigiyenik malakalarini egallashlariga sharoit yaratildi.

O‘quvchilarning bilish faolligini o‘sirish, tevarak-atrofidagi narsa va hodisalarga doir tushunchalarni boyitish, narsalarning xususiyatlarini sensor tekshiruv, taqqoslov, tahlil asosida ajratishga o‘rgatish, o‘yin, muloqot qilish malakalari hosil bo‘lishiga sharoit yaratildi. Tevarak-atrofga ijobiy munosabatni, boshqa odamlarga nisbatan mehribonlik, o‘simlik va hayvonlarni asrab-avaylash hissini tarbiyalash, hamkorlikda faoliyat qilishga qiziqishini o‘sirish, kattalar va tengdoshlar bilan nutqiy muloqotga kirisha olish malakasini o‘sirish, o‘quvchilar tasavvuri, ijodiy qobiliyatlarining o‘sishiga sharoit yaratish, o‘yin va badiiy faoliyatda ishtirok etishga qiziqtirish, o‘z reja va istaklarini amalga oshirishda natijalardan quvonishga o‘rgatish bo‘yicha ta’limiy tadbirlar amalga oshirildi.

Mashg‘ulotlarda harakatli o‘yin va o‘yin mashqlarida ishtirok etishga motivatsiya uyg‘otish, o‘quvchi larni o‘qituvchi bilan birga mashqlar bajarishga, harakat paytida signallarga rioya qilishga o‘rgatish bo‘yicha korreksion mashg‘ulotlar o‘tkazildi.

O‘z xalqining tarixi va urf-odatlarini bilmasdan, o‘quvchini o‘zi tug‘ilib o‘sgan va yashayotgan yurtning xalq madaniyati bilan yaqindan tanishtirmasdan turib, Vatanga munosib fuqaroni tarbiyalab bo‘lmaydi. Yangi zamon fuqarosini shakllantirish jarayonini Vatanga muhabbat tarbiyasidan boshlash kerak. Bolalarning yoshligidanoq uy, ota va ona, aka va opa, bobo-buvi, qarindosh-urug‘, avlodlar va o‘zaro oilaviy munosabatlar, tabiatga, barcha tirik mavjudotlarga hurmat kabi tushunchalarni o‘zlashtirishini ta’minlash zarur [3].

Xalq adabiyoti hisobi qo‘srimcha ravishda xalq adabiyotining asosiy tarkibiy qismlarini qo‘llash orqali matn tuyg‘usini shakllantiradi [4]. Bola shaxsi shakllanishida boshlang‘ich sinf davri eng muhim davr hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishonuvchan, tashqi ta’sirga beriluvchan bo‘ladilar. Ularda ijobiy hissiyotlar, fazilatlarni

tarkib toptirish, yuksak axloqiy me'yorlarni shakllantirishda asosiy mas'uliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi. [5]

Xulosa. O'quvchilarning muayyan topshiriqlarni bajarishdagi vizual, audial, kinestik obrazlarni idrok qilishi individual xususiyatlarni kuchaytiradi. O'quvchining ijodiylik kreativlik jihatlari obrazlarni idrok etish xususiyatiga bog'liq. Biroq, o'quvchi o'ziga ishonmasa, o'ziga beradigan bahosini past bo'lsa obrazlarni orginalligi, moslashuvchanligi, tafakkurning betakrorligi jihatlari ham past darajada namoyon bo'ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Айзенк, Г.Ю. (2005). Понятие и определение интеллекта// Вопросы психологии. – № 1. – С. – 111-129.
2. Gruber, H. Devis, S. (2008). Inching our way up Mount Olumpus: the evolving- sistem approach to creative thinking// R. Sternberg,n T.Tardif (eds.). The nature of creativity. Cambridge: Cambr. Press,. P.-243-270.
3. Ruzikulova, N.K. (2023). Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'rgatishning nazariy va amaliy asoslari. Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o'qitishning psixologik-pedagogik jihatlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2023-yil 2-iyun. <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/005/2.10.pdf>
4. Mariwan H. R. The effectiveness of reading folk literature in improving english language learners' reading proficiency in elementary grades. Qala ai zaniest scientific journal. Vol. (6), No (1), Winter 2021.
5. Akramova F.A. Bola shaxsi shakllanishiga boshlang'ich. Ta'lim o'qituvchisining psixologik ta'siri. zamonaviy ta'lim / sovremennoe obrazovanie 2015, 3